

## TA'LIM SOHASIDA XOTIN-QIZLARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR

**Maxmudova Sevinchxon Dilmurodjon qizi**

*QDPI qoshidagi Akademik litsey talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqola doirasida xotin-qizlarni jamiyatdagi mavqeini oshirish davlat boshqaruv ishlarida ayollar sonini ko'paytirish, hayotda o'z o'rinlarini topish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar sanab o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lim, xotin-qizlar, imkoniyat, ayol.*

Biz o'z faoliyatimizning ilk kunlaridan boshlab munis va mo'tabar ayollarimizning og'irini yengil qilish huquq va manfaatlarini ta'minlash iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish masalasini davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida belgilandi.

Xotin-qizlarimizning ijtimoiy turmush tarzini yaxshilash hamda jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishlari uchun davlatimiz tomonidan barcha zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, barcha xotin-qizlarimizni oliy ma'lumotli qilishdir.

Yer yuzida ongli hayot paydo bo'libdiki, odam zod muqaddas Ona simosini, ayol zodini ulug'lab, sharaflab keladi. Onalarimiz sharofati bilan Vatanimiz tuprog'i jannat bog'laridek go'zal va mo'tabardir. Ojiza bo'lmish onalar duosidan yurt tinch, osmonimiz musoffo, ishimizda unim, hayotimizda baraka bor. Hattoki, muqaddas Qur'oni Karimning eng katta suralaridan biri bo'lmish "Niso" surasi ham ayollarga bag'ishlangani hammamizga ma'lum. Alloh Taolo ushbu surada insonlarni ayollarga adolatli munosabatda bo'lishga davlat etadi va bu ilohiy so'zlar zamirida, albatta, teran hikmat mujassam.

Hammamizga ma'lumki barcha, sohalarda shu bilan bir qatorda ta'lim sohasida ham bir qancha islohatlar amalga oshirilmoqda.

Xalqimizda „Ta'lim va tarbiya – beshikdan boshlanadi“ degan hikmatli so'z bor. Chunki faqatgina ma'rifatli insongina jamiyat taraqqiyotiga yetaklaydi. Shuning uchun ham ta'lim sohasida ham barcha insonlarga: yoshlarga, xotin-qizlarga, hattoki, imkoniyati cheklangan insonlarga ham birdek imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, vaqtlar o'tgani sari jamiyatda ayollarning o'rne sezilarli darajada ortib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tkanlaridek, ayol baxtli bo'lsa, jamiyat baxtlidir. Shuning uchun ham jamiyat va davlat boshqaruvida ayollarning o'rne va mavqeini yanada mustahkamlash islohatlarning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda 17 milliondan ortiq xotin-qizlar istiqomat qilarkan.

Mamlakatimiz fuqarolarining katta qismini yoshlar va xotin-qizlar tashkil qiladi. Aholining 49.7 foizi hamda mehnat resurslarining 45 foizi ayollar hissasiga to'g'ri keladi. Demak, yurtimizdagi ijtimoiy masalalarning aksariyati ular hayoti bilan chambarchas bog'liq.

So`nggi yillarda xotin-qizlarni ijtimoiy himoyalash, ularni kasb-hunarga o`qitib bantligini ta`minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko`tarilib bu borada yuritiladigan vertikal tizim yaratildi.

Xotin-qizlar masalalari bo`yicha har bir mahallada alohida rais o`rinbosari, tumanda mahalla va oila bo`lim boshlig`i o`rinbosari hamda ikki nafar mutaxassisi, viloyatda esa sakkiz nafargacha shtat birligi berildi.

Ammo inkor qilib bo`lmas bir haqiqat barchamizga ma`lumki, agarda qizlarimiz to`lov-kontrakt asosida oliy ta`lim muassasalariga qabul qilinsa oilaviy sharoiti yoki boshqa sabablar tufayli o`qimaydilar. Natijada iqtidorli va bilimli qizlar ham o`qish imkoniyatidan cheklanadilar.

Yoki aksincha ba`zi ota-onalardan qizlarini to`lov-kontrakt asosida o`qimayotganlarning sababini so`rasha, qizlarni turmushga beradigan vaqti kelganda moddiy tomondan qiynalishlarini bahona qiladilar.

Eng achinarli tomoni esa, farzand tarbiyasida o`qimishli ayolning o`rni kattadir. Bu masalalarning barchasi O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o`z aksini topgan. Mehnatga haq to`lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta`minlash zarurati hisobga olgan holda belgilanadi. Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo`shatish va ularning ish haqini kamaytirish ta`qiqlanadi.

O`zbekiston Respublikasi ayollar huquqlarini har doim ta`minlashga alohida e`tibor beradi. O`zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo`lib, 1995-yil 6-mayda BMTning xotin-qizlarning kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to`g`risidagi Konvensiyasiga qo`shildi. Shuningdek, onalikni himoya qilish to`g`risida mehnat va kasb sohasidagi kamsitish to`g`risidagi Konvensiyalari va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan.

Xotin-qizlarning muammolarini tizimli hal etish va ijtimoiy qo`llab-quvvatlash bo`yicha Respublika Komissiyasi tuzilib, uning asosiy vazifasi hududlarda xotin-qizlarning muammolarini o`rganish, tizimli hal etish, qashshoqlikni kamaytirish va aholi faravonligini oshirish bo`yicha ishlarni tashkil etishdan iboratdir. Shu sababli ham muhtaram yurtboshimiz tomonidan xotin- qizlarga qo`shimcha grant kvotalari hamda ta`lim krediti ajratib berilmoqda. To`lov-kontrakti asosida qabul qilingan magistrant qizlarimizning to`lov-kontrakti davlat tomonidan to`lab berilmoqda. Boquvchisini yo`qotgan, ijtimoiy turmush tarzi og`ir bo`lgan xotin-qizlarimiz uchun „Ayollar daftari, Yoshlar daftari“ yo`lga qoyildi. Ayollar daftari doirasida salkam 642 000 nafar xotin-qizga amaliy yordam ko`rsatildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2022-yil 1-mart kuni xotin-qizlarni qo`llab-quvvatlash tizimi hamda ularni jamiyatdagi mavqeini yanada mustahkamlash bo`yicha videoselektor yig`ilishi o`tkazildi. Xalqimiz tarixida buyuk allomalar jahongir bobolarimiz qatorida bunday insonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan, ulug`vor ishlarga ruhlantirgan fozila ayollar ham ko`p bo`lgan. Bugun ham xotin-qizlarimiz

farzand tarbiyasida, turli sohalarda, mahallalarda, fidoiyluk ko'rsatmoqdalar. Ularning o'g'rini yengil qilish, huquq va manfaatlarini taminlash maqsadida so'ngi yillarda bir qator qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi. 2021-yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion kredit va subsidiyalar ajratilib 320 ming xotin-qiz doimiy ish o'rinlariga ega bo'ldi. 190 ming ayol kasb-hunarga o'qitildi. 4 mingdan ziyot xotin-qizlarga uy-joy to'lovining boshlang'ich badaliga mablag' ajratildi.

Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug' kelajagimiz ham ayollarga bog'liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo'lishiga xohlasak, avvalo, mo'tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlar yaratishimiz kerak. Ona rozi bo'lsa, oila rozi bo'ladi. Oila rozi bo'lsa, jamiyat rozi bo'ladi,- dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatimizda tadbirkorlik sohasida ham xotin-qizlar sonini ko'paytirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda- Prezidentimizning „Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab -quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora- tadbirlari to'g'risida”gi Farmonida Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturini keng miqyosida qo'llab-quvvatlash choralari belgilanib, uning moliyaviy manbasi ham aniq ko'rsatib berilgan. Jumladan, xotin-qizlarning biznes loyihalarini moliyalashtirish uchun birgina 2022-yilda qo'shimcha 1 trillion ajratildi. Mazkur dastur doirasida ajratilayotgan mablag'larning 4 trillion so'mi esa, tadbirkorlik hamda daromat topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug'ullanish va ishini kengaytirish istagini bildirgan xotin-qizlarga yo'naltirildi. Qishloq joylarda vaqtincha ishsiz ayollar va umumta'lim maktablari bitiruvchilarini tadbirkorlikka yo'naltirish, ularning moliyaviy savodxonligini oshirish uchun onlayn „ biznes-klinika”lar faoliyati yo'lga qo'yildi. Qizlarning yaxshi ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi Prezidentimizni hamisha o'ylantiradigan masalalardan biri. Bu yig'ilishda ham ular uchun ta'lim sharoitlarining kengaytirish bo'yicha ytarixiy qarorlar qabul qilindi. Yangi o'quv yilidan boshlab, ta'lim kontraktlarini to'lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilindi.

Xotin-qizlarning salomatligini tiklashni bo'yicha ham aniq tadbirlar amalga oshiriladi. Xususan joriy yilda 6ming nafar ayolga yuqori texnologik tibiy yordam ko'rsatildi. Nogironligi bo'lganlar reabilitatsiya vositalari bilan ta'minlandi. 3 million nafar xotin-qiz onkologik skriningdan o'tkazildi. Shuningdek fertil yoshdagi ayollarni dori va vitaminlar bilan bepul ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

Bundan ko'zlangan maqsad obro-e'tiborli, bilimli xotin-qizlardan iborat bo'lgan „Oqila ayollar” harakatini tashkil qilishdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, nozik hilqat vakillarining jamiyatda o'z o'rnini toppish haqida so'z ketar ekan, ularning yaxshi ta'limo lib yetuk mutaxassisga aylanishi bu borada muhim ahamiyatga ega ekanini ta'kidlash joiz. Yetarli ta'lim olgan, o'z kasbining ustasi bo'lgan inson hayotda qoqilmaydi, orzu-maqsadlari royobi sari ildam qadam tashlaydi.

Zero, hind xalqining buyuk davlat arbobi Indra Gandi „Bir qizni o'qitsangiz, butun millatni, butun jamiyatni, butun oilani o'qitgan edingiz”, deganida naqadar haq edi.

O`qimishli, ziyoli, fahim-farosatli, zukko xotin-qizlar o`z zurriyotlarini bilimli, keng dunyo qarashga ega va yuksak salohiyatli shaxs qilib voyaga yetgazadi.

Opa-singillarimiz, qizlarimiz mo`tabar onalarimizga munosib sharoit yaratib berish „Inson qadri uchun“ tamoyilining amaldagi ifodasi hisoblanadi. Bugunigi farovon hayotimiz ham, yorug` kelajagimiz ham, avvalo, oila va jamiyat ustuni hayotimizning fayzi va ko`rki bo`lgan ayollarimizga bog`liqdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1 Mirziyoyev. Sh. Yangi O`zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. 2021 -Toshkent.
- 2 Xalq so`zi gazetasi.
- 3 O`zbekiston Respublikasi „Xotin-qizlar to`g`risida“gi qonun.